

13.3(511)
I-20

Y. Solijonov

HOZIRGI ADABIY JARAYON

33.3/302
5-30.
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YO'LDOSH SOLIJONOV

HOZIRGI ADABIY JARAYON

*O'quv qo'llanma
bakalavriyatning o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun*

JIZZAX DPI

INV № 142392

AXBOROT RESURSLAR MARKA

Toshkent

“Innovatsiya-Ziyo”

2020

UDK: 894.375
BBK: 83.3(50'z)
S 70

Solijonov Yo'ldosh
Hozirgi adabiy jarayon lo'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo",
2020, 102 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada "Hozirgi adabiy jarayon" fanining obyektli XX asrning 90-yillaridan XXI asrning shu kunigacha bo'lgan davrda yaratilgan adabiy-badiiy asarlar va mazkur davrdagi adabiy hayot haqida so'z yuritilgan.

O'quv qo'llanma bakalavriatning o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar

Mirzayeva X.

Filologiya fanlari doktori, professor

Sabriddinov A.

Filologiya fanlari doktori

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

ISBN 978-9943-6793-5-1

© Yo'ldosh Solijonov, 2020.
© "Innovatsiya-Ziyo", 2020.

MAVZU: KIRISH. FANNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. "Hozirgi adabiy jarayon" fanining obykti. Maqsad va vazifalari.

2. Hozirgi adabiy jarayonning taraqqiyot bosqichlari, manbalari, omillari.

3. Hozirgi adabiyotning asosiy tendensiya, konsepsiya va xususiyatlari.

Dastlab talabalar darsni o'zlashtirish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar, mustaqil ta'lim uchun ajratilgan adabiyotlar bilan tanishtiriladi va yozdirib qo'yiladi. Shundan so'ng ma'ruza bo'qilnadi.

Biz o'rganmoqchi bo'lgan "Hozirgi adabiy jarayon" fani to'la ma'noda mustaqillik mevasi hisoblanadi. O'z nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu fan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi o'lon qilingan 1991-yildan to hozirgacha bo'lgan davr haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun uni dastlab "Mustaqillik davri adabiyoti", "Istiqlol davri adabiyoti", "Eng yangi o'zbek adabiyoti" degan nomlar bilan ham ataldi. Ikki asrni tutashtirgan, XX asrning so'nggi o'n yilligi bilan shiddatli XXI asrning ikki dekadasi o'ziga xos oltin ko'prik bilan bog'lagan bu adabiy jarayon g'oyatda murakkab davrni bosib o'tdi.

"Hozirgi adabiy jarayon" fanining obykti XX asrning 90-yillaridan XXI asrning shu kunigacha bo'lgan davrda yaratilgan adabiy-badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Aslida 30 yil bobotarix uchun non ushog'idek qisqa muddat hisoblanadi. Ammo ana shu muddat mustaqillik ishq'i bilan yongan o'zbek xalqi hayotida juda katta ishlar amalga oshirilgan oltin davr bo'lib qoldi. Bu qisqa muhlat huddi atom zarrasi kabi mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy jabhalarida ijobiy ma'nodagi kuchli portlashlarni vujudga keltirdi. Bunday ijobiy